



Ustoz merosidan innovatsion ta'limgacha

# ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

EYIB.UZ jurnali hamkorligida

San'atshunoslik va chizmachilik fanini  
o'qitish metodikasida muammo hamda yechimlar

## AMALIY SAN'ATNING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING MADANIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI.

**Tillayeva Mashxuraxon O'ktamovna**

Qo'qon DU San'atshunoslik kafedrası kabinet mudiri

**Roziqova Sevinchxon G'ulomjon qizi**

Qo'qon davlat universiteti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada amaliy san'atning tarixiy shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda uning jamiyat madaniy hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Qadimgi davrlardan boshlab zamonaviy bosqichgacha bo'lgan jarayonda amaliy san'at turlari, milliy maktablar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston hududidagi amaliy san'at an'analari va ularning bugungi kundagi ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** amaliy san'at, hunarmandchilik, naqsh, bezak, kulolchilik, kashtachilik, milliy meros.

**Аннотация:** В данной статье анализируется историческое формирование прикладного искусства, этапы его развития и его роль в культурной жизни общества. Рассматриваются виды прикладного искусства, национальные школы и их художественно-эстетические характеристики от античности до современности. Также на научной основе рассматриваются традиции прикладного искусства на территории Узбекистана и их значение сегодня.

**Ключевые слова:** прикладное искусство, ремесла, узоры, украшения, керамика, вышивка, национальное наследие.

**Annotation:** This article analyzes the historical formation of applied art, stages of development and its role in the cultural life of society. Types of applied art, national schools and their artistic and aesthetic characteristics are covered in the process from ancient times to the modern stage. Also, the traditions of applied art in the territory of Uzbekistan and their significance today are considered on a scientific basis.

**Keywords:** applied art, crafts, patterns, decorations, ceramics, embroidery, national heritage.

Amaliy san'at insoniyat tarixida eng qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi. U insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan birga estetik talablarini ham ifodalagan. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, ibtidoiy jamiyatdayoq inson turli buyumlarni bezash orqali estetik tafakkurini namoyon eta boshlagan<sup>1</sup>.

Amaliy san'at moddiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u maishiy buyumlar, kiyim-kechak, uy-joy jihozlari va marosim buyumlarini badiiy bezash

<sup>1</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Энциклопедияси. – Т., 2015. – Б. 784.

jarayonida shakllangan<sup>2</sup>. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida — Mesopotamiya, Misr, Xitoy va Hindiston hududlarida amaliy san'at yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda sopol buyumlar, metall qurollar, zargarlik ashyolari nafis naqsh va ramziy tasvirlar bilan bezatilgan<sup>3</sup>.

Arxeologik qazish ishlari natijasida Surxon voxasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan yog'och o'ymakorligi topilmalari mazkur joylarda, bir yarim ming yil muqaddam san'atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o'z izlanishlarining mahsuli sifatida isbot etib berishdi. Xali-xanuz bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon voxasida, balki Samarkand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Farg'ona vodiysidagi Sux va boshka qadimiy shahar, qishloqlaridan V-VI asrlarga tegishli bo'lgan san'at asarlari topilmokda. Samoniylar davrida amaliy bezak san'ati, ayniqsa kulolchilik, shishasozlik va yog'och o'ymakorligi, rivojlandi. Monumentalme'morchilikka katta e'tibor berildi, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalarida, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammomlar, madrasalar qurildi. Qurilishda asosan pishiq g'ishtdan foydalanildi, ba'zan bino devori xom g'ishtdan, tomi- gumbaz pishiq g'ishtdan ishlandi. Binolar ko'rkam va chidamli bo'lishiga e'tibor qaratildi, bor ilm va kuchlarini safarbar etdi<sup>4</sup>.

Markaziy Osiyoda esa qadimgi Baqtriya va So'g'd madaniyati davrida kulolchilik, zargarlik va to'qimachilik rivojlangan. Topilgan arxeologik buyumlar o'sha davr hunarmandlarining yuqori mahoratini ko'rsatadi. O'rta asrlarda islom madaniyatining rivojlanishi bilan amaliy san'at yangi bosqichga ko'tarildi. Geometrik va islmiy naqshlar keng qo'llanila boshladi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari hunarmandchilik markazlariga aylandi. Bu davrda kulolchilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik va zardo'zlik yuksak darajada rivojlandi. Me'moriy obidalaridagi bezak san'ati amaliy san'at bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etdi<sup>5</sup>.

Yevropada Uyg'onish davrida amaliy san'at tasviriy san'at bilan uyg'unlashdi. Badiiy mebel, gobelen, keramika va shisha san'ati rivojlandi. Sanoat inqilobi natijasida esa amaliy san'atda yangi material va texnologiyalar paydo bo'ldi. XIX–XX asrlarda milliy uslublar va an'analarni saqlash bilan birga, dizayn yo'nalishi shakllandi. Zamonaviy dizayn konsepsiyasi amaliy san'atning yangi bosqichi sifatida qaraladi. O'zbekiston hududida amaliy san'atning boy an'analari mavjud<sup>6</sup>. Ayniqsa, Rishton kulolchilik maktabi, Marg'ilon atlas va adras to'qimachiligi, Shahrisabz kashtachilik san'ati bilan mashhur. Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. An'anaviy san'at turlari zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashtirilmokda. Amaliy san'at insoniyat madaniy

<sup>2</sup> Булатов С.С., Саипова С.М. **Бадий тахлил тамойиллари** (монография). – Т.: Фан ва технология, 2016. – Б. 74–95.

<sup>3</sup> Sarvinozxon, Sattorova. "O'zbekistonda amaliy san'at turlari va rivojlanishi." *JournalNX* 8.11 (2022): 108–111

<sup>4</sup> O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATINI TASHKIL TOPISHI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI Murad Absamatovich Rasulov Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti — Tasviriy san'at kafedrasida dotsent v.b, Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 5 | May, 2022 | SJIF: 5,965 | UIF: 7,6 | ISRA: JIF 1.947 | Google Scholar | www.carjis.org DOI: 10.24412/2181-2454-2022-5-319-329

<sup>5</sup> Sattorova, Sarvinozxon, Madaminjon Ergashev, Alimardon Abdullayev. "SHARQ GAVHARI—QOQON SHAHRI (1-QISM)." *Yevrosiyo Akademik tadqiqotlar jurnali* 2 (2022): 185–187

<sup>6</sup> Булатов С. **Ўзбек халқ амалий безак санъати**. – Т.: Мехнат, 1991. – Б. 66–68.

merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat maishiy ehtiyojni qondiradi, balki estetik dunyoqarashni shakllantiradi. Tarixiy jarayonda amaliy san'at jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlanib kelgan. Bugungi kunda esa u milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrash va zamonaviy dizaynni boyitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Amaliy san'at insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab kelgan. U dastlab insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish jarayonida yuzaga kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan yuksak estetik va badiiy qadriyatlarni mujassam etgan san'at turiga aylandi. Arxeologik topilmalar, qadimgi Sharq sivilizatsiyalari hamda Markaziy Osiyo hududidagi madaniy meros namunalari amaliy san'atning uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

O'rta asrlarda, xususan islom madaniyati ta'sirida, amaliy bezak san'ati yangi badiiy shakl va mazmun bilan boyidi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi markazlarda hunarmandchilik maktablarining rivojlanishi milliy san'at an'alarini mustahkamladi. Yevropada Uyg'onish va keyinchalik sanoat inqilobi davrida esa amaliy san'at yangi texnologiyalar va dizayn yondashuvlari bilan takomillashdi.

Bugungi kunda amaliy san'at milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni asrab-avaylash hamda zamonaviy dizaynni boyitishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston hududidagi kulolchilik, kashtachilik, to'qimachilik kabi an'anaviy san'at turlari nafaqat tarixiy qadriyat sifatida, balki zamonaviy madaniy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Shunday qilib, amaliy san'at nafaqat estetik qadriyat, balki jamiyatning madaniy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Булатов С.С., Саипова С.М. Бадий тахлил тамойиллари. (монография)Т.:—Фан ва технология|| 2016, 74-95 бетлар.
2. Захириддин Мухаммад Бобур. Энциклопедияси. 2015, 784-бет.
3. Булатов, С. (1991). Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент:“Меҳнат, 66- 68.
4. Bulatov, S. S., & Gulyamov, K. M. (2014). Amaliy sanat. T.: IQTISOD-MOLIYA.
5. Булатов, С. С. .: IQTISOD-MOLIYA. (2010). Наккошлик. Т.
6. Bulatov, C. S., & Jabbarov, R. R. (2010). Philosophical and psychological analysis of works of fine arts (monograph). Science and Technology Publishing House.
7. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 5 | May, 2022 | SJIF: 5,965 | UIF: 7,6 | ISRA: JIF 1.947 | Google Scholar | www.carjis.org DOI: 10.24412/2181-2454-2022-5-319-329
8. Sattorova, Sarvinoz Ortiqboy qizi, and Ortiqova Mubinabonu Ma'murjon qizi. "Gobelen san'atida badiiy go'zalligini aks ettirish." *Ekonomika i sotsium*, no. 11 (138), 2025, [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
9. Sarvinozxon, Sattorova. "O'zbekistonda amaliy san'at turlari va rivojlanishi." *JournalNX* 8.11 (2022): 108–111.